SOTSIALISTIK ADABIYOTDA VAKILLIK VA POLIFONIYA: BAXTIN VA SPIVAK KONTEKSTIDA MADUN OVOZI MUAMMOSI

Dr. Bayram Bilir
SamDCHTI, bayram-b@samdchti.uz

Annotatsiya: Ushbu ma'ruzaning maqsadi sotsialistik realizm adabiyotida ishchilar va dehqonlar sinfi talqinini Mixail Baxtinning "polifoniya" (ko'p ovozlilik) nazariyasi hamda Gayatri Chakravorti Spivakning "madun" (subaltern) konsepsiyasi prizmasi orqali tadqiq etishdan iboratdir. Sotsialistik realizm ovozi bo'g'ilgan quyi tabaqalarni adabiyot markaziga olib chiqishni maqsad qilsa-da, ko'p hollarda muallif yoki hukmron ideologiya ovozini mutloqlashtiruvchi yakka ovozli (monofonik) tuzilmaga aylanish xavfini tashiydi. Shu nuqtai nazardan, Spivakning "Madun gapira oladimi?" degan savoli sotsialistik realizm estetikasi doirasida qaytadan dolzarb ahamiyat kasb etadi: madun haqiqatan ham o'z ovozi bilan gapiryaptimi yoki sotsialistik ziyolining ideologik diskursi tashuvchisiga aylanyaptimi? Ushbu tadqiqot sotsialistik realizm matnlaridagi quyi tabaqa qahramonlarining Baxtin tushunchasidagi mustaqil va ko'p ovozli subyektlar ekanligini muhokama qilgan holda, madunning badiiy talqini bilan ideologik diskurs o'rtasidagi ziddiyatni yuzaga chiqarishni maqsad qiladi.

Kalit so'zlar: Sotsialistik realizm, Polifoniya, Baxtin, Subaltern, Spivak, Adabiy tasvir.

Kirish: Dominant nutq va qarshi ovoz o'rtasidagi ziddiyat

Adabiyot sotsiologiyasi va tanqidchilik nazariyasida qahramonning "kimligi" qanchalik muhim bo'lsa, u qahramonning "qanday gapirishi" va "kimning nomidan so'zga chiqishi" ham shunchalik asosiy legitimlik (qonuniylik) muammosidir. 20-asrning eng ta'sirchan adabiy va siyosiy oqimlaridan biri bo'lgan sotsialistik realizm adabiyot tarixidagi eng buyuk estetik va siyosiy burilishlardan birini amalga oshirib, o'sha davrgacha burjua adabiyotining chekkasida shunchaki fon elementi, achinarli epizodik personajlar yoki karikaturalashtirilgan tiplar sifatida o'rin olgan ishchilar, mardikorlar, chetga surilgan dehqonlar va ezilgan ommani hikoyaning ayni markaziga joylashtiradi (Bilir, 2023). Ushbu oqimning bosh va'dasi – rasmiy tarix va hukmron tabaqalar tomonidan ko'rinmas qilib qo'yilgan bu ommani namoyon etish, ularga adabiy va siyosiy minbar taqdim etib, o'z ovozlarini dunyoga eshittirishdan iborat edi.

Biroq sotsialistik realizmning bu samimiy va inqilobiy "ovoz berish" da'vosi adabiy estetika va badiiy talqin nazariyasi jihatidan o'zi bilan birga tarkibiy (struktural) bir paradoksni ham keltirib chiqaradi. Aynan shu nuqtada, adabiyotni "ovozlar va onglar kurashi" deb bilgan Mixail Baxtinning polifoniya (ko'p ovozlilik) nazariyasi hamda postkoloniyal tanqidchilik asoschilaridan biri Gayatri Chakravorti Spivakning "madun" (subaltern) konsepsiyasi sotsialistik realizm estetikasi va poetikasini so'roq ostiga olish uchun kuchli ilmiy-nazariy vositaga aylanadi.

Baxtin monologik (yakka ovozli) romanlarda personajlar muallifning ideologik g'oyasini tashishdan nariga o'tmaydigan shunchaki bir qo'g'irchoq (kukla) ekanligini ta'kidlasa; haqiqiy adabiy erkinlik muallif ovozi bilan teng huquqlarga ega, mustaqil onglar birgalikda mavjud bo'la oladigan "polifonik" romanlarda namoyon bo'lishini ilgari suradi (Bakhtin, 1984). Ikkinchi tomondan, Spivak "Madun gapira oladimi?" (Can the Subaltern Speak?) nomli asarida gegemonik (hukmron) munosabatlarning butunlay tashqarisiga surib tashlangan eng quyi tabaqa (madun) vakilining hukmron tizim va elita qatlamning lisoniy (lingvistik) qoidalari ichida qolib, o'zining

sof, o‘ziga xos ovozi bilan gapirishining imkonsizligini muhokama markaziga olib chiqadi (Spivak, 1988).

Ushbu ikki nazariy karkas birlashtirilganda, sotsialistik realizm adabiyotining qoq markazida pedagogik va estetik bir ziddiyat chizig‘i tortiladi: sotsialistik realizm matni o‘z tabiati taqozosiga ko‘ra “yagona partiya haqiqati”, “tarixiy dialektika” yoki “muqarrar sotsialistik kelajak” kabi mutloq va monologik bir ovozga yo‘nalganda, matndagi madun qahramonlarning polifonik tarzda mavjud bo‘lish imkoniyati ularning qo‘lidan olinadi. Madun qahramon matn ichida “onglashgani” va istibdodga qarshi bosh ko‘targani sayin, ironik tarzda o‘zining tabiiy, parchalangan va mahalliy tilidan uzoqlashib; muallifning, partiyaning yoki ziyolining kitobiy, ideologik hamda standart (adabiy) tilida gapira boshlaydi.

Bu holat badiiy talqinda larzali bir savolni tug‘diradi: madun feodal yoki kapitalistik mustamlakachining changalidan qutulayotgan bir paytda, bu safar uni qutqarishga va tarbiyalashga kelgan “sotsialistik ziyoli diskursi” tomonidan qaytadan madunlashtirilmoqdami? Qahramon haqiqatan ham o‘z nomidan gapiryaptimi yoki uning ortida turgan muallifning ideologik monologini ijro etib beryaptimi?

Ushbu ma’ruza mazkur tarkibiy paradoksga tayangan holda, Oybekning “Qutlug‘ Qon” romani misolida sotsialistik realizm adabiyotida madunlikning shakllanishini va bu jarayonning polifoniya bilan bo‘lgan estetik to‘qnashuvini nazariy tekislikda muhokamaga ochishni maqsad qiladi.

Birinchi uchrashuv – Jim Madunning "Haqiqiy" ovozi va polifoniya ehtimoli

Matn boshida madun qahramon qanday taqdim etiladi? Dastlabki sahnalarda polifoniya (ko‘p ovozlilik) bo‘lishi mumkinmi? Sotsialistik realizm romanlarining boshlang‘ich bosqichlarida, odatda, madun qahramonlarning (mardikorlar, konchilar, fabrikadagi ma’lumotsiz ishchilarning) feodal yoki kapitalistik zulm ostida ezilgan va chorasiz qolgan “sof/tabiiy” holati tasvirlanadi. Matnning ushbu qismlarida qisman polifoniya (ko‘p ovozlilik) kuzatiladi. Muallif personajlarning mahalliy shevalariga, irim-sirmalari (xurofotlari) va qo‘rquvlariga, shuningdek, ularning o‘zaro kundalik muloqotlariga (dialoglariga) keng o‘rin beradi. Baxtin tushunchasi bo‘yicha, ayni shu dastlabki lahzalarda qahramonlar hali yozuvchining ideologik ovozidan mustaqildir; ular o‘zlarining cheklangan dunyosi ichida, o‘ziga xos ovozlari bilan mavjud bo‘ladilar.

Biroq, bu “autentik” (asliy/tabiiy) ovoz Spivak ta’kidlab o‘tganidek, hukmron tizim tomonidan eshitilmaydigan, rasmiy-institutsional nufuzga ega bo‘lmagan, shu bois ham madunlikni yanada chuqurlashtiruvchi o‘ziga xos bir “sukut shakli”dir. Qahramon gapiradi, ammo uning ovozi gegemon devorga borib uriladi va yana ortiga qaytadi; huquqiy, siyosiy yoki iqtisodiy jihatdan hech qanday o‘zgarish (transformatsiya) yarata olmaydi.

“Keyin o‘z ahvoliga, qishloqdagi oilasiga qayg‘urdi: ≪Men chiqqanimda uy qoq edi. Na bir siqim un, na bir qoshiq moy! Nima bilan tirikchilik qilishadi? Ukam ishlaydi. Lekin yosh bola xo‘jayinnikida o‘z qornini to‘ydirsa, bunga ham xursandman... Kuzda tog‘amdan pul olib yuboraman-da. Lekin qarindoshlarimiz o’lgunday pishiq odamlarga o‘xshaydi. G‘irromlik qilishmasa, mayli-ya...≫” (Oybek, 2024:41).

O'zgarish lahzasi – Mafkuraviy ong va monofoniyaning shakllanishi

Qahramon o‘z huquqlarini talab qila boshlaganda, ya’ni “onglashganda” uning ovozi qanday o‘zgaradi? Sotsialistik realizmning yuragi aynan mana shu bosqichda uradi. Biror tashqi

omil (odatda shahardan kelgan ziyoli, partiya yetakchisi yoki fabrikadagi ongli, ilg‘or ishchi) madun qahramonni tarbiyalaydi, uning qalbiga va ongiga sinfiy ongni singdiradi.

“Boylarning bo‘yinturug‘i ostida obdan ezilgan, butun borlig’i ularga qarshi nafrat bilan to‘lgan, kurash yo‘lini qidirgan bu aqlli yigitni - Yo‘lchini Petrov butun revolyutsion ruhi va sevgisi bilan tarbiyalaydi, revolyutsion kurash alangasi bilan uning fikrlarini oydinlashadi. Jamiyatda boylar va ishchi-mehnatkashlar sinfi borligini, boylaming manfaatlari bilan mehnatkashlarning manfaatlari birbiriga zid ekanini, boylarning oltin-kumushlari mehnatkashlarning qoni, teridan yaratilganligini, butun davlat va uning mahkamalari boylarniki bo‘lib, mehnatkashlarni ezish uchun xizmat qilishini tushuntirdi. Boylarning va hamma mulkdorlarning zulmidan qutulish uchun, ozodlikka, baxtga erishish uchun, hamma mehnatkashlar, din, millat farqiga bormasdan birlashib, uyishib, boylar hokimiyatini ag‘darishlari va butun ishni o‘z qo‘llariga olishlari; so‘ng baravarlikka asoslangan hayot tuzishlari kerakligini uqtirdi.” (Oybek, 2024:336).

Aynan mana shu onglashish (shakllanish) pallasida matnning estetik tuzilishida keskin (radikal) burilish yuz beradi. Qahramon feodal boyga (og‘aga) yoki fabrika xo‘jayiniga qarshi ilk isyon bayrog‘ini ko‘targanida, endi o‘zining mahalliy, parchalangan va tabiiy tilida gapirmay qo‘yadi. Uning nutqi to‘satdan kitobiy, ideologik, shiorbozlikka asoslangan va standart bir 'diskurs' xususiyatini kasb etadi.

Bu yerda Baxtin ta’kidlagan monofoniya (yakka ovozlilik) xavfi bo‘y ko‘rsatadi. Personaj endi muallifning yoki ideologik dasturning so‘zchisiga (qo‘g‘irchog‘iga) aylanib qolgan bo‘ladi. Uning ongi muallif ongi bilan teng huquqlarga ega bo‘lgan mustaqil ovoz bo‘lishdan to‘xtaydi; yozuvchining 'mutloq haqiqatini' hayqiruvchi o‘ziga xos bir megafonga aylanadi.

Qarama-qarshilikni hal qilish – "Intellektual diskurs" orqali qayta bo'ysundirish

Madun xo‘jayinning gegemoniyasidan qutulib, ziyolining diskurs qopqoniga siqilib qolmoqdami? Sotsialistik realizm madunni 'tarixiy subyekt'ga aylantirish da’vosi bilan chiqqan bir paytda, uni badiiy tekislikda qaytadan qanday qilib obyektlashtirib (shaxssizlashtirib) qo‘yganini so‘roq ostiga olish har jihatdan to‘g‘ridir.

Spivak madun hukmron tilning chegaralariga qadam qo‘yganida tilsizlanib qolishini aytadi. Sotsialistik realizm matnida ham aynan shunday holat kuzatiladi: madun qahramon faqatgina 'madunlikni tark etib, ishchilar sinfining ma’rifatli (ilg‘or) peshvomillari' tiliga taqlid qilgandagina matn tomonidan qabul qilinadi (tan olinadi). Qahramonning o‘ziga xos mahalliy, dehqoncha yoki chetga surilgan hayotiy voqeligi (sof madunligi) esa muallif tomonidan 'ortda qolganlik' (peshqadamlikka zidlik) sifatida kodlanadi va matndan batamom siqib chiqariladi.

“- Xaloyiq! - dedi Yo‘lchi hayajonlanib. - Bo‘sh kelmanglar, oyoqni tirash kerak, mushtni ko‘rsatish kerak. ... Gap shu, birodarlar, zulm-jabrga qarshi jang qilish uchun tayyorlanish kerak. Boylarning so‘ziga sira uchish kerak emas. Ularning bari aldoqchi, bari yurtimizni zaharlaydi, bari iflos! Man ularni juda yaxshi bilib olganman...” (Oybek, 2014:353).

Binobarin, madun o‘zining haqiqiy, o‘ziga xos ovozi bilan gapira olmagan. U feodal/kapitalistik gegemoniyaning lisoniy (lingvistik) tazyiqidan qutqarilgan; biroq bu safar uni qutqarishga kelgan 'sotsialistik/vasiy (pedagogik) ziyoli diskursi'ning vasiylik tazyiqi ostiga kirib qolgan. Muallif qahramonga ovoz berar ekan, aslida uning 'o‘z ovozini' qo‘lidan tortib olgan va uni shunchaki ideologik bir loyiha obyektiga aylantirgan.

Xulosa: Vakillik chegaralari va "Sub'ekt" sifatida bo'ysunuvchining kelajagi

Ushbu ma’ruzada sotsialistik realizm adabiyotining ezilgan va sukutga mahkum qilingan tabaqalarga 'ovoz berish' da’vosi Mixail Baxtinning polifoniya nazariyasi va Gayatri Chakravorti

Spivakning madun (subaltern) konsepsiyasi doirasida tadqiq etildi. Izlanishlar natijasida shu narsa ayon bo‘ldiki, sotsialistik realizm quyi tabaqalarni namoyon etish borasida muhim tarixiy vazifani (missiyani) o‘z zimmasiga olgan bo‘lsa-da, estetik tekislikda ko‘p hollarda yakka ovozli (monofonik) va ideologik tuzilmaga yo‘nalgan. Personajlar 'sinfiy ong'ga erishgan nuqtalarida o‘zlarining xos (asliy) ovozlaridan uzoqlashib, muallifning yoki ideologik dasturning diskursini tashiydigan vositalarga aylanib qoladi. Shunday qilib, madun hukmron sinfning tazyiqidan qutulayotgan bir paytda, bu safar uni ifoda etayotgan sotsialistik ziyoli diskursining chegaralari ichiga tortiladi. Ushbu tadqiqot haqiqiy adabiy ozodlik faqatgina Baxtin tushunchasidagi turli ovozlar muallif bilan teng huquqlarga ega bo‘lgan polifonik hikoya maydonidagina mumkin bo‘lishini ko‘rsatib beradi.

Adabiyotlar

1. Bakhtin, M. M. (1984). *Problems of Dostoevsky’s poetics* (C. Emerson, Trans.). University of Minnesota Press.

2. Bilir, B. - Yılmaz, A. (2023). Özbek Edebiyatında Toplumcu Gerçekçilik. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi / International Journal of Turkic Dialects (TÜRKLAD). 7. Cilt, 2. Sayı, 249-260.

3. Spivak, G. C. (1988). *Can the subaltern speak?* In C. Nelson & L. Grossberg (Eds.), *Marxism and the Interpretation of Culture* (pp. 271–313). Urbana: University of Illinois Press.

4. Oybek. (2024). *Qutlug‘ qon* (“Abadiy barhayot asarlar” turkumi). Oltin qalam.